



«Taxiatosh IES» AJ
Bosh direktor v.b.

M.O.Nurimbetov
2026 yil "12" 03

«Taxiatosh IES» AJ korrupsiyaga qarshi kurashish

ichki nazorat tizimi "komplaens xizmati" ning 2025-yil davomida amalga oshirgan ishlari tug'risida

XISOBOTI

"Taxiatosh IES" AJ-ida 2025-yil davomida korrupsion xolatlar kuzatilmadi.

Korrupsiyaga oid xabarlarni qabul qilish uchun jamiyatning ishonch telefonlari, jamiyatning rasmiy veb sayti, elektron pochta, telegramm botlari ko'rsatilgan e'lon jamiyatning e'lonlar taxtasiga joylashtirilgan va muntazam ishchi xolatida.

"Taxiatosh IES" AJ-ida 2025-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish soxasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan bo'lib rejaga muvofiq ishlar olib borildi.

Barcha turdagi tovar moddiy boyliklarni (ishlar va xizmatlarni) xarid qilish jarayonlari, O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" gi O'RK-684 sonli Qonuni va davlat xaridlariga oid O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining qarorlari va "Taxiatosh IES" AJ-da 2024-yil 01-mart sanasidan amalga kiritilgan "Korxonada ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun tovar moddiy boyliklarni (ishlar, xizmatlarni) xarid qilish to'g'risida" gi ichki nizomga muvofiq, yil davomida "xarid.uzex.uz" portalida "Yagona yetkazib beruvchilar reestri" dan ro'yxatdan o'tgan korxonalar bilan 46 ta, "xarid.uzex.uz" portali electron do'koni orqali 18 ta, "Xt.xarid.uz" platformasi orqali 3, new.cooperation.uz elektron portal orqali 14 ta, O'zbekiston Respublikasi tovar xom-ashyo birjasi savdolari SPOT sistemasi orqali 38 ta, O'zR. Davlat xaridlar to'grisidagi qonunning 71-moddasi 2 va 6-xat boshida ko'rsatilgan narx (tarif) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi bo'yicha to'gridan-to'gri shartnoma tuzish yo'li bilan 6 ta, O'z.R Prezidentining 2018 yil 27-sentyabrdagi "Davlat xaridlari to'risida" gi qonunini amalga oshirish chjra-tadbirlari to'risidagi PQ-3953 sonli qarori ilovasining 9-bandiga asosan 1 ta, korxonaning electron saiti orqali TMB, ishlar va xizmatlar uchun tijorat takliflarin berishni so'rab berilgan elonlar bo'yicha taklif

qilingan eng yaxshi takliflar tanlash yo'li bilan 235 ta, xarid komissiyasi tomonidan organilib tanlangan korxonalar bilan jami 361 shartnoma imzolangan va amalga oshirilgan. Ushbu shartnomalarning barchasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bantlar kiritilgan. Barcha tuzilgan shartnomalar jamiyatning komplaens xizmati tarafidan nazoratga olinib borilgan va o'rganish natijasi bo'yicha hisobot tuzilgan.

2025 yil 8 aprel va 5 dekabr kunlari Taxiatoş tumani prokurori o'rinbosari X.Qoşimmatov, tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari U.Romanov va TQQ katta tezkor xodimi R.Otajonov tomonidan stansiyaning rahbar va ishchi xodimlari bilan korrupsiya va kiberterrorizm tushinchasi, sohadagi qononchilik talablari, korrupsiyaviy xarakterlar uchun javobgarlik, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xodimlar huquqiy madaniyatini oshirish, kiberterrorizmni oldini olish bo'yicha davra suxbati o'tkazildi.

Yil davomida stansiyaning barcha sex va bo'limlari ishchi-xodimlariga bosh direktorning xodimlarga murojat va qabul qilingan ichki hujjatlar bilan tanishtirib borildi.

Ishlab chiqilgan ichki normativ hujjatlardan maqsad jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish, jamiyatda yuqori axloqiy me'yorlarga sodiqlik, shuningdek, xodimlar ish faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga muvosihsiz munosabatini shakillantirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasini tartibga soluvchi farmonlari, qarorlari talablariga, O'zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari va O'zbekiston Respublikasining xaliqaro bitimlariga va standartlariga mos ravishda ishlarni tashkil etish va olib borish zarurligi ishchi-xodimlarga tushuntirildi.

2025 yil davomida korxonaga 55 nafar ishchi qabul qilindi va ular bilan mehnat shartnomalari tuzilgan, tuzilgan barch mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarsh kurashish bo'yicha bantlar kiritilgan. Yangi ishga kirganlar stansiyaning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan tanishtirilgan.

Komplaens bo'yicha yetakchi
professional mutaxasisi



T.Ishnazarov